



**XALQ DEPUTATLARI TOYLOQ TUMANI KENGASHINING
QARORI**

2024-yil 1-aprel

VI-89-37-7-104-K/24

Toyloq tumani

Aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash borasida tumanda amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan "Samarqand suv ta'minoti" MCHJ Toyloq tumani filiali boshlig'i S.Yuldashovning hisoboti to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi "Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6074-sonli farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-martdagi "Xalqaro taraqqiyot uyushmasi ishtirokidagi "Suv ta'minoti va oqova suv tizimini rivojlantirish hamda institutsional salohiyatni oshirish" dasturi doirasida "Samarqand viloyati kattaqo'rg'on shahrida ichimlik suv hamda oqova suv tizimlarini rekonstruksiya qilish" loyahasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-159-sonli qarori, hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining sakson to'qqizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash borasida tumanda amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan "Samarqand suv ta'minoti" MCHJ Toyloq tumani filiali boshlig'i S.Yuldashovning hisoboti hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o'rinbosari (S.Eraliyev), "Samarqand suv ta'minoti" MCHJ Toyloq tumani filiali boshlig'i (S.Yuldashov)ga:

aholiga ichimlik suvini toza va sifatli uzluksiz yetkazib berish;

oqava suv xizmati sifatini yaxshilash, oqava suv tarmoqlarini o'z vaqtida va sifatli ta'mirlash ishlarini olib borish; iste'molchilarga yetkazib berilgan ichimlik suvi bo'yicha hisob-kitoblarni belgilangan tartibda va o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash;

ichimlik suvidan foydalanadigan tadbirkorlar va ishlab chiqaruvchilar orasida mutasaddi idoralar vakillari ishtirokida doimiy ravishda ichimlik suvidan oqilona foydalanish bo'yicha uchrashuvlar tashkil etish;

yangi iste'molchilarni qamrab olish hamda aholi iste'molchilari tomonidan to'lovlar amalga oshirilishini ta'minlash choralarini ko'rsin.

3. "Samarqand suv ta'minoti" MCHJ Toyloq tumani filiali boshlig'i (S.Yuldashov)ga:

ichimlik va oqava suv ta'minotidagi avariylarni o'z vaqtida bartaraf etish, ichimlik suv ta'minotidagi yo'qotishlarni kamaytirish hamda iste'molchilarga sifatli xizmat ko'rsatish maqsadida maxsus texnika vositalari bilan ta'minlash masalasini belgilangan tartibda hal etish choralarini ko'rish;

aholining debitor qarzdorligini kamaytirish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifalari yuklatilsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (N.Raxmatova) hamda "Qo'shchinor" gazetasi tahririyati (M.Yuldashova) sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko'rsatish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (X.Tog'ayev) hamda tuman hokimining o'rinbosari(S.Eraliyev) zimmalariga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi



YULDASHOVA
MUTABAR
ABDUMANONOVNA